



BIRINCHI PREZIDENTIMIZ XOTIRASI HAMISHA YODIMIZDA

2-sentabr kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovni xotirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu marosimda ishtirok etib, Birinchi Prezidentimiz haykali poyiga gulchambar qo‘ydi.

Istiqlol tufayli o‘zligimizni angladik. Asriy orzularga erishib, xalqaro maydonda teng huquqli mamlakat sifatida o‘z ovozimizga ega bo‘ldik. Xalqimizning ko‘p ming yillik shonli tarixi tiklandi, tan olindi. Shu orqali ona tilimizni, unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni qaytib oldik.

Ular qalb to‘la faxr bilan dunyoga tarannum etish sharafiga muyassar bo‘ldik. Yangi O‘zbekistonda mazkur yutuqlar yanada baland marralar sari izchil davom etmoqda. Mustaqillik sabab tiklangan milliy davlatchiligimiz, yangicha shiddat va qudrat bilan mustahkamlanmoqda.

Mustaqillikka erishish hamisha xalq jasoratini, birdamlikni talab etgan. Istiqlolning dastlabki yillari esa doim murakkab kechgan. Birinchi Prezidentimiz

ana shunday murakkab, sinovli davrda O‘zbekiston rahbari bo‘ldi. Istiqlol, o‘zlikni anglash haqida gap ketar ekan, haqli ravishda Birinchi Prezidentimizning yorqin xotirasini ehtirom bilan yodga olamiz. Chunki Islom Karimov nomi mustaqillikning qo‘lga kiritilishi, yurtimizning mustaqil taraqqiyot yo‘liga chiqishi bilan uzviy bog‘liq.

Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma‘rifiy yodgorlik majmuasida Qur‘on oyatlari tilovat qilinib, marhum haqqiga duo o‘qildi.



Birinchi Prezidentimizning mustaqillikka erishish, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash borasidagi xizmatlari yodga olindi.

Mamlakatimizda milliy tarixni milliy ruh bilan yaratishga jiddiy e‘tibor berilmoqda. Yoshlarning tarixiy ilm va tafakkur bilan kamol topishi yo‘lida islohotlar o‘tkazilyapti. Shu o‘rinda bir hayotiy haqiqatni qayd etish zarur. Tarixni adolatparvarlar yozadi. Negaki solnomalar

adolatdan kuch olib yashaydi. Ana shu quvvat yoshlar qalbi, umuman jamiyatta bunyodkorlik, birdamlik ruhini kuchaytiradi. Mustaqilligimizning ilk yillaridagi sinovli davrni doim yodda tutish, undan avvalgi og‘ir damlarni unutmaslik yangi O‘zbekistonning ezigulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasiga xizmat qiladi. Birinchi Prezidentimizning xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha qilingan keng ko‘lamli ishlar zamirida ana shunday hayotiy haqiqatlar bor.

Xotira marosimida Birinchi Prezidentimiz haykali poyiga Oliy Majlis palatalari, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar vakillari, ziyolilar va Toshkent shahri jamoatchiligi ham gullar qo‘ydi. Shuningdek, xotira tadbirlari Samarqand va Qarshi shaharlarida ham bo‘lib o‘tdi.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MILLIY STATISTIKA TIZIMI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IZCHIL RIVOJLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish yakunlari hamda milliy statistika tizimida islohotlarni jadallashtirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimiz aholisi 1989-yildan buyon qariyb ikki barobar, iqtisodiyotimiz esa so‘nggi sakkiz yilda ikki karra o‘tdi. Bunday o‘zgarishlar aholi tarkibi, yashash manzillari, yer resurslari, qishloq xo‘jaligi hamda oziq-ovqat manbalari to‘g‘risida aniq va ishonchli ma‘lumotlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi.

Shu maqsadda joriy yilda o‘tkazilgan aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari bo‘yicha axborot berildi.

Dastlabki natijalarga ko‘ra, yurtimizda doimiy aholi soni 39 million 47 ming nafarni tashkil etdi. Amaldagi hisobda aks etmagan 810,6 ming nafar aholining yashash manzili va ijtimoiy maqomiga aniqlik kiritildi.

Amaldagi ma‘lumotlar bilan solishtirganda Jizzax viloyati aholisi 2,7 foiz, Namanganda 1,3 foiz, Surxondaryoda 0,9 foiz va Qashqadaryoda 0,7 foiz kam ekani

aniqlandi. Buxoro viloyatida ko‘rsatkich deyarli o‘zgarmagan, boshqa hududlarda esa o‘sgan. Xususan, Toshkent tumani aholisi avvalgi hisobga nisbatan 1,6 barobar ko‘p, Andijon shahrida esa 15,8 foiz kam ekani ma‘lum bo‘ldi.

Qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijasida hisobda aks etmagan 985,5 ming gektar yerning chegarasi va toifasi aniqlashtirildi. Shundan 789,5 ming gektari ekin yerlari, 14,1 ming gektari issiqxonalar, 75,3 ming gektari bog‘lar, 21,4 ming gektari tokzorlar va 85 ming gektari baliqchilik havzalariga to‘g‘ri keladi.

Jarayonlarning raqamlashtirilgani hisobiga ro‘yxatga olish xarajati aholi jon boshiga 1,5 ming so‘mdan oshmadi. Bu MDH davlatlaridagi ko‘rsatkichlarga nisbatan 15 barobar kam. Internet orqali ro‘yxatga olish qamrovi 82,3 foizni tashkil etdi. Barcha

jarayonlar 15 kunda yakunlanib, O‘zbekiston ro‘yxatga olish tezligi bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinni egalladi.

Ro‘yxatga olish natijalari asosida aholi va qishloq xo‘jaligining doimiy yangilanib boradigan statistik registrlari shakllantirildi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlariga oid 100 ta, qishloq xo‘jaligi va ekin maydonlariga doir 50 ta ko‘rsatkich yangilanadi. Shuningdek, 2017-2025-yillar uchun milliy hisoblar ko‘rsatkichlari qayta baholanadi.

Taqdimotda iqtisodiy faoliyatni to‘liq statistik hisobga olish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Bugungi kunda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 23 foizni yoki 246 trillion so‘mni tashkil etmoqda. Qishloq xo‘jaligida umumiy aylanmaning 60 foizi ushbu sektor hissasiga to‘g‘ri keladi.

Davomi 2-betda

ATOM ELEKTR STANSIYASI VA ATOMCHILAR SHAHARCHASI XAVFSIZ VA YUQORI SIFATDA BARPO ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatida integratsiyalashgan atom elektr stansiyasi hamda unga yondosh zamonaviy shaharcha barpo etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar taqdimoti bilan tanishdi.

Atom energetikasini rivojlantirish mamlakatimiz energetik xavfsizligini mustahkamlash, barqaror bazaviy elektr generatsiyasini yaratish va energiya manbalarini diversifikatsiya qilishda strategik ahamiyatga ega.

Integratsiyalashgan atom elektr stansiyasi loyihasi joriy yil 4-iyundan qurilishning faol bosqichiga o‘tdi. Bugungi kunga qadar reaktor binosi uchun kotlov qazish ishlari to‘liq yakunlanib, 1 million kub metr dan ortiq tuproq qazib olindi. Poydevor plitasining bir qismiga 916 kub metr beton quyildi. Qurilish-montaj bazasidagi 100 gektar maydonda yer ishlari bajarildi.

Ayni paytda qurilish maydonida 450 nafar ishchi va mutaxassis, 100 dan ziyod maxsus texnika faoliyat yuritmoqda.

Loyihaning umumiy qiymati 9,5 milliard dollar tashkil etadi. Jarayonda 3 mingga yaqin turdagi mahsulot va uskunalardan foydalaniladi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, loyihada mahalliy mahsulotlar ulushi 21 foiz yoki 1,9 milliard dollari tashkil etadi. Davlatimiz rahbari bu ko‘rsatkich yetarli emasligini ta‘kidladi.

Loyihada mahalliy mahsulotlar ulushini kamida 30 foizga yetkazish, qurilish-montaj ishlarining 65 foizini milliy korxonalar tomonidan bajarish hamda 7 ming nafar mahalliy ishchi va mutaxassisni jalb etish vazifasi qo‘yildi.

Shu maqsadda Forish tumanida 200 gektar maydonda qurilish materiallariga ixtisoslashgan sanoat zonasini tashkil etish taklif qilindi. Unda kamida 100 ta qo‘shma korxonani joylashtirish va texnologiyalar transferi orqali 15 ta yo‘nalishda mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz ushbu taklifni ma‘qullab, sanoat zonasini ishroqchilariga soliq va bojxona imtiyozlarini tatbiq etish bo‘yicha

qaror loyihasini yil yakuniga qadar kiritishni topshirdi.

Bunda qurilish sifati va xavfsizligi eng ustuvor masala bo‘lishi shartligi, barcha ishlar MAGATE talablari va xalqaro standartlarga to‘liq muvofiq amalga oshirilishi ta‘kidlandi.

Taqdimotda joriy yil 22-26-iyun kunlari MAGATening kompleks baholash missiyasi o‘tkazilib, O‘zbekiston milliy yadroviy infratuzilmasining rivojlanish holatiga yuqori baho berilgani qayd etildi.

Stansiyaning tashqi muhandislik infratuzilmasini barpo etish doirasida 388 kilometr elektr tarmoqlari, 110 kilovoltli podstantsiya, 21 kilometr ichimlik va 120 kilometr texnik suv quvurlari, 39,5 kilometr avtomobil hamda 11 kilometr temir yo‘l quriladi.

Davomi 2-betda

XALQIMIZ QALBIGA QULOQ TUTILIB, DARDIGA DARMON BO‘LISH MAQSADI YO‘LIDAGI ISLOHOTLAR SAMARASI



Avgust sarhisobi

“To‘yga tayyorgarlik ham to‘y”, deydi xalqimiz. Shu ma‘noda, avgust oyi yurtimizda katta to‘y bo‘ldi. Bu oy yirik bunyodkorlik loyihalari foydalanishga topshirilgan, yangilariga start berilgan, iqtisodiy taraqqiyotning yangi marralari belgilab olingan, asosiysi, istiqbolimizning shonli 35 yilligi munosib qarshi olingan, shunga mos ravishda yurtdoshlarimizda bayramona kayfiyat, ko‘tarinki ruh, o‘zgacha shijoat jo‘sh urgan bir davr sifatida tarixda qoldi.

O‘zbeklarda odat bor: to‘y, albatta, uy-joyni ta‘mirlash, yangi bino qurish, ko‘cha-ko‘yini tozalashdan boshlanadi. Shunday harakatli qo‘shnisini ko‘rgan inson biladiki, u to‘y taraddudiga tushgan.

Avgust oyi mustaqilligimizning 35 yillik shodiyonasiga hamohang boshlandi va butun oy shunday davom etdi. Prezidentimizning Xorazm viloyatiga tashrifidan qiyos.

Davlatimiz rahbari 17-avgust kuni hududlarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishish, aholi vakillari va tadbirkorlar bilan muloqot qilish maqsadida ushbu viloyatga keldi.

Davomi 3-betda

YORUG‘ KELAJAGIMIZ USTUNLARI



Davlatimiz rahbari oyning so‘nggi kunida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishi hamda “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda ishtirok etish uchun Bishkek shahriga tashrif buyurdi.

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uznews

yuz.uz_news

Avgust sarhisobi

Ilhom Aliyev Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnomani imzolashi ushbu rivojlanish jarayonining tarixiy cho‘qqilaridan biri bo‘ldi. Mazkur hujjat nafaqat ikki davlat rahbarining siyosiy irodasini, balki O‘zbekiston va Ozarbayjonning kelajakka birgalikda qarash borasidagi qat‘iy qarorini ham ifodalaydi.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik va birodarlik munosabatlari asosida, avvalo, ikki davlat rahbarining shaxsiy do‘stona munosabatlari mujassam. Davlat rahbarlarining bir-biriga “aziz birodarim” deb murojaat qilishi shunchaki diplomatik odob ifodasi emas, balki ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy va ma‘naviy yaqinlikning siyosiy darajadagi aksidir.

Ozarbayjon Prezidenti e‘tirof etganidek, Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston rahbarligiga kelguniga qadar ikki mamlakat o‘rtasida birorta ham qo‘shma loyiha bo‘lmagan.

Sharif, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Shuningdek, VI Butunjahon ko‘chmanchilar o‘yinlarining tantanali ochilish marosimida SHHT davlatlari rahbarlari va boshqa mehmonlar bilan birgalikda ishtirok etdi.

Bir so‘z bilan aytganda, davlatimiz rahbarining avgust oyidagi faoliyatining har bir lahzasi muhim tadbirlar, tarixiy voqealarga boy bo‘ldi. Ushbu sa‘y-harakatlarning barchasi O‘zbekiston taraqqiyoti, xalqimizning farovon turmushini yanada yaxshilashga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga egadir.

Mustaqillik berilmaydi. Bu shunday ne‘matki, unga jasorat, fidoyilik, qat‘iyatli kurash bilan erishiladi. Ayniqsa, bugun yurtimizga ilk istiqloq epklarini olib

KALQIMIZ QALBIGA QULOQ TUTILIB, DARDIGA DARMON BO‘LISH MAQSADI YO‘LIDAGI ISLOHOTLAR SAMARASI



Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Hudud aholisining kambag‘allik darajasi bu muammo ilk bor tan olinib, uni bartaraf etishga kirishilganida 35 foiz, Xorazmga keluvchi sayyohlar esa 16 ming kishini tashkil etgani ham u yerdagi vaziyatning aslini ko‘rsatuvchi raqam. Qisqa fursatda viloyatda kambag‘allik darajasi 3,9 foizga tushdi. Ya‘ni avval har uch odamdan biri kambag‘al bo‘lgan bo‘lsa, bugun bu ko‘rsatkich o‘n barobar kamaydi.

Xo‘sh, bunga qanday erishildi? Hududda turizm rivojlantirildi. Bugun viloyatga kuniga 8 mingdan ko‘proq, yiliga 3 milliondan ortiq sayyoh kelishi rejalashtirilmoqda. Atigi o‘n yil oldin yiliga o‘n mingdan ortiq xorijiy sayyoh kelgan bo‘lsa, bugun kuniga shuncha, yiliga esa millionlab turistlar tashrif buyurmoqda.

Xorazm o‘z-o‘zidan sayyohlar uchun bu qadar jozibali manzilga aylanib qolmadi. Avvalo, hududning o‘ziga xos tarixi va bugungi zamonaviy qulayliklar bunga zamin hozirladi. Oxirgi to‘qqiz yilda 11 ta yangi turizm maskani ish boshladi. 280 ta mehmonxona va mehmon uyi qurilishi hisobiga mehmonxona fondi 4 barobar ortdi, hududda 11 ta yangi turizm maskani ishga tushirildi.

Masalan, o‘tgan yili 25 gektar past unumli, sho‘rxok maydonga “Arda Xiva” noyob me‘moriy loyihasi amalga oshirildi. U bugun Xorazmning eng ko‘p sayyoh tashrif buyuradigan majmualaridan biri.

Viloyatda turizm rivojiga eng katta to‘siqlardan biri transport infratuzilmasi shakllanmagani edi. Bugungi kunga kelib Xorazmga istasangiz poyezd, istasangiz samolyot yoki avtomobil yo‘li bilan boring, barcha qulayliklar yaratilgan. Xususan, Toshkent — Xiva — Toshkent yo‘nalishida “Jaloliddin Manguberdi” tezyurar poyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yilgani sayyohlarning uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilmoqda. Yangi poyezd soatiga 250 kilometr gacha

tezlikda harakatlanib, 14 soatli yo‘lni 7,5 soatda bosib o‘tmoqda.

Davlatimiz rahbari tashrif davomida viloyat mas‘ullari oldiga yangi vazifa, keyingi marrani qo‘ydi. Ya‘ni yil oxiriga qadar viloyatni kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish, aholini to‘liq ish bilan ta‘minlashga erishish maqsad qilindi. Albatta, bunga erishish uchun kerakli chora-tadbirlar ham belgilab olindi.

Prezidentimiz ishtirokida viloyatda 176 million dollarlik 12 ta loyiha ishga tushirilgani to‘yga o‘ziga xos to‘yona bo‘ldi. Shuningdek, xorijlik hamkorlar ishtirokida 7 milliard 424 million dollarlik 15 ta yangi quvvat qurilishiga start berildi. Bu loyihalar, albatta, viloyatning iqtisodiy barqarorligi hamda aholi farovonligiga salmoqli hissa qo‘shadi.

Yuqorida bejiz xalqimizda to‘y bunyodkorlikdan boshlanadi, demadik. Xorazmda boshlangan yangi loyihalarni ishga tushirish marosimi yurtimiz bo‘ylab keng yoyildi, respublika miqyosidagi katta shodiyonaga aylanib ketdi.

Jumladan, 25-avgust kuni mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan hududlarda 163 ta yangi obyektni ishga tushirish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda davlatimiz rahbari hududlardagi studiyalarga yig‘ilgan keng jamoatchilik vakillarini, ular orqali butun xalqimizni bayram bilan tabriklati va yangi obyektlarni ishga tushirishdan oldin oxirgi o‘n yillikdagi bunyodkorliklarni bir qur yodga oldi. So‘nggi o‘n yil mamlakatimiz tarixida yangi Uyg‘onish davri — Uchinchi Renessans poydevorini qurish bosqichi sifatida tarixga abadiy muhrlanishini qayd etdi.

Ushbu davrda, shuningdek, iqtisodiyotimiz hajmi 2,5 barobardan ziyod oshib, iqtisodiyot tarmoqlariga 160 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilingani alohida e‘tiborga molik.

Yangi o‘quv yili arafasida ijtimoiy sohada ham ko‘plab zamonaviy obyektlar, jumladan, 36 ta bolalar bog‘chasi, 43 ta maktab, 7 ta oliy ta‘lim muassasasi va 3 ta shifoxona foydalanishga topshirildi.

Yangi Toshkent hududidagi 30 ming kvadrat metr maydonga ega besh qavatli yangi Milliy kutubxona, Qarshi shahrida Iqtisodiyot va pedagogika universitetining 400 milliard so‘mlik zamonaviy bino va inshootlari, Farg‘ona viloyatidagi yangi zamonaviy tibbiyot muassasasi butun O‘zbekiston ahli uchun haqiqiy to‘yona bo‘ldi.

Xiva shahrida Prezidentimizning tadbirkorlar bilan 18-avgust kuni o‘tkazilgan navbatdagi ochiq muloqotida 500 dan ortiq ishbiarmon hamda birinchi marotaba tuman studiyalaridan 25 mingga yaqin tadbirkor ishtirok etdi.

Bunday ochiq muloqotlar oxirgi yillardagi shiddatli taraqqiyotimizning tamal toshidir. Dunyoda eng qiyin yumush



eshitish, deyishadi. Davlatimiz rahbari o‘z faoliyatini xuddi mana shu ishdan — fuqarolar va ishbiarmonlar dardu tashvishi, jamiyat taraqqiyoti uchun to‘siq bo‘layotgan muammolarni eshitishdan boshladi. Muloqotning eng asosiy talabi gapirish, nutq o‘qish emas, eshitishdir. Zero, muammolarning yechimi ayni muloqotlardan chiqarilgan xulosalarda yashiringan bo‘ladi.

Oxirgi besh yilda tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotlarda biznes rivojiga to‘siq bo‘lgan minglab masalalarga yechim topilgani ham fikrimizni isbotlaydi. O‘tgan davr mobaynida muloqotlardan kelib chiqqan xulosalar natijasida 84 ta qonun, 861 ta farmon va qaror qabul qilindiki, bu hujjatlar ishbiarmonlarning erkin faoliyatiga, davlatimizning iqtisodiy yuksalishi, xalqimiz hayoti farovonlashishiga katta zamin yaratdi.

Nazarimda, ilgari ayni muammolarni hamma bir stol atrofida o‘tirib muhokama qilmagani muammolar ortishi, jamiyat taraqqiyotidan ortda qolishi, ishbiarmonlar faoliyati rivojlanmasligiga sabab bo‘lgan. Ulardan hech kim muammosini, tashvishini, hol-ahvolini so‘ramagan. Bundan esa hamma birdek zarar bilan chiqqan, davlat iqtisodiyoti nochorlashgan, tadbirkorlar esa biznesini to‘xtatishga majbur bo‘lgan. Buni samimiy ochiq muloqotda “maska shou”lar haqidagi xotiralar eslanishidan ham anglash qiyin emas.

Keyingi yillardagi tub o‘zgarishlar natijasida bugun soliqchi oddiy qarz undiruvchi emas, tadbirkorga ko‘makchi bo‘ldi, bank-moliya tizimi madadkor, davlat esa ularning eng yaqin sirdoshiga aylandi. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, tadbirkorga kredit berish emas, uni birinchi qadamidan katta biznesga aylangunicha boshidan oxirigacha qo‘llab-quvvatlaydigan kompleks tizim yaratilmoqda. Bundan esa barcha birdek foyda ko‘rmoqda. Tadbirkor faoliyatini kengaytirib, mahsulotini jahon bozoriga olib chiqmoqda. Aholi ishli bo‘lib, ro‘zg‘ori butlanayapti. Davlatning iqtisodiy salohiyati yil sayin ko‘tarilmoqda.

Prezidentimiz bu natijalar, eng avvalo, tadbirkorlar bilan yelkama-yelka amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi ekanini aytib, doim takrorlaydigan iborasi — bir kishini ishli qilgan ishbiarmonni yelkasiga ko‘tarishga tayyor ekanini qayta-qayta takrorlashdan charchamasligini bildiradi.

Tadbir doirasida Prezidentimizning “Tadbirkorlar kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash to‘g‘risida”gi farmoyishi bilan soha vakillariga ordenlar va mukofotlar topshirildi. Ha, xizmat qilgan hurmat topadi deb bejiz aytishmaydi. Ayniqsa, yurt ravnaqi, xalq farovonligi yo‘lida xizmat qilganlarni har qancha mukofotlasi, e‘tirof etsa, shuncha kam.

August oyida davlatimiz rahbari boshchiligida sohalarni taraqqiy ettirish bo‘yicha bir qancha taqdimot va videoselektor yig‘ilishlari o‘tkazildi. Ushbu yig‘ilishlar tarmoqlarni yanada rivojlantirish bilan birga, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olishga qaratildi. Qish-kuz mavsumiga tayyorgarlik shular jumlasidan.

Ushbu yo‘nalishda neft-gaz va elektr energetikasi tizimini yaxshilash bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazildi. Jumladan, sohaning turli jabhalarini tartibga solish va rivojlantirishga bag‘ishlangan beshta yig‘ilish o‘tkazilishi ham masala naqadar dolzarb ekanini bildiradi.

Davlatimiz rahbari yig‘ilishlarda soha mas‘ullarining o‘tgan davrda qilingan ishlar bo‘yicha hisobotini tinglab, bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarni belgilab berdi.

Ana shunday muloqotlardan yana birida aholini go‘shit va sut mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash, bu borada chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish bo‘yicha fikr almashildi.

Mamlakatimizda sun‘iy intellekt ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha erishilgan natijalar va istiqboldagi ustuvor vazifalar yuzasidan taqdimotda esa O‘zbekistonning sohadagi yutuq va kelgusida zabt etishi kerak bo‘lgan marralari haqida so‘z bordi. Qayd etilganidek, so‘nggi yillarda O‘zbekiston sun‘iy intellektga tayyorlik bo‘yicha xalqaro reytingda 25 pog‘ona yuqorilab, 62-o‘ringa ko‘tarildi. 2030-yilga qadar yurtimizni mazkur reytingda eng ilg‘or 50 ta davlat qatoriga kiritish maqsad qilingan.

Kadastir agentligi faoliyatini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish, aholi va tadbirkorlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarni soddalashtirish, davlat fuqarolik xizmatchilarining oylilik ish haqi tizimi va mehnatga haq to‘lash shartlarini muvofiqlashtirish kabi qator yo‘nalishlar bo‘yicha ham yig‘ilishlar bo‘lib o‘tdi. Ular mazkur sohalar rivoji uchun o‘ziga xos “yo‘l xaritasi” vazifasini o‘tashi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, avgust oyida davlatimiz rahbari tomonidan 8 ta qonun, 26 farmon va 19 ta qaror, 12 farmoyish imzolandi.

23-24-avgust kunlari Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev mamlakatimizga davlat tashrifi bilan keldi. Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasidagi tashrif shukhi avvalgilardan butkul boshqacha bo‘ldi.

Tarixiy ahamiyatga ega tashrif ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik, ikki tomonlama manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tardi. Tashrif doirasida Shavkat Mirziyoyev va

Bugun esa 1 milliard dollarlik tovar ayirboshlash hajmi endi orzu emas, yaqin yillarda erishiladigan real maqsadga aylandi. Ozarbayjon Prezidenti tashrifi davomida davlatimiz rahbari hamda o‘zbek xalqini mustaqilligimizning 35 yilligi bilan samimiy muborakbod etdi.

29-30-avgust kunlari Prezidentimiz taklifiga binoan Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Uchrashuv avvalida Narendra Modi davlatimiz rahbarini mustaqillik kuni bilan tabriklab, xalqimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladi.

Yetakchilar ishtirokida o‘tgan samarali muloqotlarda O‘zbekiston — Hindiston strategik sheriklik munosabatlari va ko‘p



qirrali hamkorligini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi. Imzolangan shartnoma va kelishuvlar ko‘ra, ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini keyingi bosqichga ko‘tarish belgilandi.

Davlatimiz rahbari avgust oyida, shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqot qildi.

AQSH Kongressi Vakillar palatasi kongressmenlari Jeyson Smit, Greg Merf, Ronni Jekson va Edvard Keys, Singapur Respublikasining Katta vaziri Li Syan Lun qabul qilindi. Ushbu davlatlar bilan yangi shartnoma va kelishuvlarga erishildi.

Davlatimiz rahbari o‘yning so‘nggi kunida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishi hamda “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda ishtirok etish uchun Bishkek shahriga tashrif buyurdi.

Sammit doirasida davlatimiz rahbari BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz

namoyon etadigan chinakam taraqqiyot markaziga aylanadi, — dedi Prezidentimiz.

Shuningdek, mustaqillikning asl mohiyatini bir so‘z bilan ochib berdi.

— Mustaqillikning buyuk ahamiyati, avvalo, inson qadri va erkin hayotida namoyon bo‘ladi. Shu bois, besh islohotlarni boshlagan birinchi kunlardan qalqning qalbiga quloq soldik, aholining dardiga darmon bo‘lishni maqsad qildik. “Inson qadri uchun!” degan g‘oyani davlat siyosatining markaziga olib chiqdik, — deya ta‘kidladi mamlakatimiz yetakchisi.

Keyingi yillarda ushbu g‘oya asosida amalga oshirilgan islohotlar birma-bir sanab o‘tildi. Xususan, birinchi galda “paxta qulligi”, majburiy mehnat va bolalar mehnati, konvertatsiya cheklavi, propiska kabi odamlarni yillar davomida qiyinab kelgan muammolarga barham berilgani qayd etildi.

Bayram tantanasi xalqimizning qadim 3 ming yillik tarixidan sado beruvchi kuy-qo‘shiqlar, sahna ko‘rinishlari hamda dronlar shousiga aylanib ketdi. Ishtirokchilar qalbi masrur bo‘lib, yangi O‘zbekiston g‘oyasini amalga oshirish shiddatiga to‘liq toshdi.





Dunyoyi tajribasiga ko'ra, fab-lablar ilmiy maktab, innovatsion g'oya, ustoz va talaba, tadbirkor va ishlab chiqarish bir-birini to'ldiradigan muhitda eng yaxshi natija beradi. Bu harakatning bugun yuzlab markazlar va minglab ilm egalari birlashtirayotgani ham bejiz emas.

